O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
BOSHQARMASI

230100 No'kis qalasi, G'a'rezsizlik ko'shesi,59? u'y, Tel/Faks: 71-203-11-02, E-mail: exspertiza.rk@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Embergenov Jengisbay Saginbaevich
Sana: 07-08-2024 yil

# YIG'MA EKSPERT XULOSASI

213616 - SONLI

| | |
|---|---|
| **Obyekt nomi:** "Nukus shaxri "Dosliq guzari" MFY hududidagi 5 qavatli turar-joy qurilishi" ob'ektining ishchi loyiha hujjatlari | |
| **Buyurtmachi:** | KONKRET KAMEN MCHJ |
| **Bosh loyihachi:** | "ARXANGLE GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati |
| **Moliyalashtirish manbai:** | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan |
| **Bosh pudratchi:** | «Konkret kamen» MChJ. |
| **Qurilish turi:** | Yangi qurilish |
| **Murojaat raqami:** | 021959 |

## 1. Loyihalash uchun asos.

2024 yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Nukus shaxar Hokimi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan 01.12.2024 dagi 1735-1735401-159505-son bilan berilgan arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

2024 yil 16 yanvarda "O'ZGAShKLITI" Qoraqalpoq filiali tomonidan ishlab chiqilgan muhandislik-geologiya sharoitlari №5943-sonli xulosasi.

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan 08.01.2024 yili berilgan 1735401-149772-sonli Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qushimcha bino va inshootlarni qurish uchun ruxsatnoma.

2024 yil 16 yanvarda "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MChJ Nukus shaxar filiali tomonidan ichimlik suv tarmoqlariga ulanishi uchun berilgan №T-51-sonli texnik shart.

2024 yil 24 mayda "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MChJ oqova suv filiali tomonidan markaziy oqoba suv tarmoqlariga ulanishi uchun berilgan №T-28-sonli texnik shart.

2024 yil 28 fevralda "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF tomonidan tabiy gaz bmlan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga berilgan №056799-sonli texnik shart.

2024 yil 3 iyunda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Qoraqalpog‘iston hududiy filiali” elektr tarmoqlariga ulanish uchun berilgan 05-348-sonli texnik shart.

2024 yil 11 iyulda buyurtmachi tomonidan berilgan 24-sonli xati.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

«Ishchi loyiha»ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha-smeta hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-04-23 dagi 121856248-sonli xulosasi.

2024 yil 28 martda O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan 01-02/02-245-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

***Qurilish maydonining o‘ziga xos hususiyatlari.***

- Qurilish hududining iqlimiy mintaqasi –IVA.
- Shamolning tezligi – 38 kg/m2.
- Qorning og‘irligi – 50 kg/m2.
- Yerning muzlash qatlami chuqurligi – 1,17m.
- Yer osti suvining sathi – 0,9-1,0m.
- Hududning zilzilabardoshlik ko‘rsatkichi – 7 ball.

***Bosh reja yechimlari.***

- Loyiha bosh rejasiga ko‘ra 5 qavatli turar-joy binosi Nukus shaxri “Dosliq guzari” MFY hududida joylashgan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan - naturoq joy, janub tomondan - ochiq maydon , sharq tomondan - ko‘p qavatli turar joy, g‘arb tomondan- naturoq joy bilan chegaralangan. loyiha asosida 5 qavatli turar-joy binosini qurish ishlari ko‘zda tutilgan. Hududning obodonlashtirish ishlari loyiha topshirig‘ining 17 bandiga asosan 2-bosqichda amalga oshiriladi.

Ob’ektning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatgichlari:

- Qurilish osti maydoni – 2441,8m2.
- Binolar umumiy maydoni – 5867,4m2.
- Binolar qurilish hajmi – 18153,6m3.
- Qurilishning davomiyligi – shartnomaviy majburiyatlarga asosan.

***Asosiy loyiha yechimlari.***

*Blok-1 (yangi qurilish)* –5 qavatli, yerto‘lali, tarxi to‘g‘ri turt burchak shaklida “A-G” va “1-16” o‘qlar bo‘yicha o‘lchami 13,6x48,8 metr, xonalar balandligi poldan shiftgacha 3,0 metrni tashkil qiladi.

*Blok-2, 3 (yangi qurilish)* - 5 qavatli, yerto‘lali, tarxi G shaklida “A-I” va “1-11” o‘qlar bo‘yicha o‘lchami 17,79x33,79 metr, xonalar balandligi poldan shiftgacha 3,0 metrni tashkil qiladi.

*Blok-4, 5 (yangi qurilish)* - 5 qavatli, yerto‘lali, tarxi to‘g‘ri turt burchak shaklida “A-D” va “1-13” o‘qlar bo‘yicha o‘lchami 13,6x32,0 metr, xonalar balandligi poldan shiftgacha 3,0 metrni tashkil qiladi.

***Arxitekturaviy va konstruktiv yechimlar.***

Loyihalanayotgan bino bo‘ylama va kundalang yuk kutaruvchi rama, g‘isht devorlar, yig‘ma ko‘p g‘ovokli temir beton plita va quyma temir beton kamarlar bilan mahkam konstruksiyalar asosida loyihalangan.

Poydevor – V15 sinfidagi quyma yaxlit temirbetondan.

Sokol –V12,5 sinfidagi quyma yaxlit betondan.

Kolonnalar – V20 sinfidagi quyma temirbeton.

Rigellar – V22,5 sinfidagi quyma temirbeton.

Ravoqlar – V15 sinfidagi quyma temirbeton va metaldan.

Zinopoyalar – 1.050.1-2 vip.1 seriyali va V15 sinfidagi quyma temirbeton.

Devorlar –M50 markali sementli qorishmada M75 markali g‘ishtdan.

Eshiklar – metall va MDF.

Oynalar – plastik.

Pollar – laminat, keramik plitka.

Ora bostirma va bostirma – yig‘ma temir betondan (seriya 1-141.1-40s).

Tom qismi – yog‘och konstruksiyalarga maxsus profil qoplamali tom qoplamasi bilan qoplanadi. Tom bostirma ustidan 150 mm qalinlikdagi bazalt bilan qoplandi. Tom qismidagi qor, yomg‘ir suvlari quvur va ariqlar orqali olib tushiladi.

Binoning ichki qismini pardozlashda - devorlarni sifatli suvoqlab suvli emulsiyali va yog‘li buyoqlar bilan bo‘yash belgilangan. Xonalarning namli devorlariga keramika sopol bo‘laklari teriladi.

Binoning tashqi fasad qismi devorning tashqi tomonidan issiqlikni saqlovchi 100 mm. qalinlikdagi mineral plita (bazalt) bilan va ustidan armokarkas yordamida sifatli shpatlevka qilinib, travertin bilan pardozlash ishlari belgilangan.

Bino perimetri bo‘ylab betonli otmostka qilinadi.

***Yong‘in havsizligini ta’minlash tadbirlari.***

Xonalar eshiklarining ochilishi evakuatsiya, ya’ni, chiqish tomonga ochiladi. Tomning yog‘och konstruksiyalari yong‘inga qarshi suyuqliklar bilan ishlov beriladi. Bino atrofida yong‘in texnikalari harakatlanishi uchun qattiq qoplamadan yo‘llar mavjud.

***Energiya tejamkorlik.***

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

– devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan, bino tom qismiga quyosh batareyalar o‘rnatilgan, shuningdek deraza va eshiklar konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;

- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;

- issiq suv ta’minoti quyosh kollektori va elektr suv isitgich orqali amalga oshiriladi.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

Loyihalanayotgan bino loyihalash topshiriqlariga asosan issiqlik va ventilyatsiya, suv va oqova suv, elektr energiya va gaz ta’minoti muhandislik tarmoqlari bilan ta’minlanib jihozlanadi.

***Suv va oqava suv ta ‘minoti***

Binoga suv mavjud quvur orqali yetkaziladi. Erkin bosim yetishmagan holatlar uchun kuvvati Q=4m3/soat, n=1.1kvt ikkita nasos urnatish ko‘zda tutilgan. Sovuq suv ta’minoti tarmoqlarida Ø63-50-40-32-25-20mm polipropilen quvurlar loyihalashtirilgan.

Issiq suv ta’minoti – elektr suv isitgichidan va quyosh kollektoridan amalga oshiriladi. Issiq suv ta’minoti tarmoqlarida Ø20-25mm polipropilen quvurlar qo‘llanishi loyihalashtirilgan.

Binodan oqava suvlar o‘z oqimi bilan tashqi kanalizatsiya tarmoqlariga tushadi. Ichki kanalizatsiya tizimida Ø50-110mm polietilen quvurlar qo‘llaniladi.

***Isitish va shamollatish tizimi.***

Issiqlik ta’minoti markaziy izitish tizimi orqali amalga oshiriladi. Isitish uchun issiq tashuvchi bo‘lib 95-70°S parametrga ega suv xizmat qiladi. Isitish tizimi ikki quvurli. Tizimda Ø20-25-32-40-63-75 mm polipropilen quvurlar qullaniladi. Isitish priborlari – bimetal radiatorlar. Xar bir radiatorga termoregulyator o‘rnatiladi.

Ventilyatsiya tabiiy va mexanik yo‘l bilan ishga tushiriladi. Havoning almashtirilishi derazalar orqali shamollatish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

***Gaz ta’minoti tizimi.***

Ichki gaz ta’minoti past bosimli bo‘lib, loyiha buicha Ø15-20-25-32-40-50-70 mm lik po‘lat quvurdan qo‘llaniladi. Har bir xonadonga gaz ta’minotinining hisobini ulchash uchun gaz hisoblagichlar va gazoanalizatorlar urnatiladi.

***Elektr tarmoqlari.***

Elektr ta’minotining toifasi III. Kuchlanish –6/0,4 kV. Hisoblangan quvvati Rr=335,5 kVt. Elektr ta’minotiga ulanish nuqtasi RP-2 dan chiquvchi 6 kV li Raxat tarmog‘idan taminlanuvchi mavjud TP-193 ning 6 kV tarafidan amalga oshiriladi. Ob’ekt xududiga 630 kVa li GKTP-630/6/0,4 rusimli transformator punkti loyixalangan. Ulanish nuqtasidan loyixalangan TP gacha 30 metr masofada ASB 3x70mm2 rusimli kabeli 0,7 metr chiqurlikda yotqizilip 6 kV li kabel tarmog‘i barpo etiladi va 250 metr masofada AS-35 rusimli yalang‘och simlar bilan 6 kV xavo tarmog‘i barpo etiladi.Loyixaviy TP ning 0,4 kV tarafidan ob’ektning kirituv taqsimalash shitlarigacha 0,7 m chuqurlikda kundalang kesimi turlicha AVVG rusimli kabel yotqiziladi. Obekt xududini yoritish quyosh batareyali elektp chiroqlari bilan amalga oshiriladi. Xonalarni yoritish svetodiodli chiroqlar bilan amalga oshiriladi, lampalarni ulash suvoq qatlami ostidagi yashiringan APUNP simlar bilan amalga oshiriladi. Ob’ekt tom qismida quyosh panellari o‘rnatish rejalangan. Obektning perimetri bo‘ylab videoko‘zatuv tizimi ko‘zda tutilgan.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Bosh reja qo‘yidagi tashkilotlar bilan kelishilgan: Нукус шаҳри hokim o‘rinbosari, Нукус шаҳри бош архитектори, Нукус шаҳри СЭО ва ЖСБ бош врачи, Нукус шаҳри электр тармоқлари, Нукус шаҳри сув таъминати, “Қорақалпоқтелеком” филиали, Нукус шахар оқова сув филиали, “Нукус шахаргаз” филиали.

**6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **46 958 850 560** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

**1 593 266 910** so'mga kamaytirilib, **45 365 583 650** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **35 839 797 568** so'm

Asbob-uskunalar: **4 665 187 832** so'm

QQS: **4 860 598 250** so'm

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 46 958 850,560 ming so‘m miqdorida taqdim etilgan boshlang‘ich-narx hisobi qiymati 1 593 266,910 ming so‘mga kamaytirilib, 45 365 583,650 ming so‘mni tashkil qildi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari (Asbob-uskunalar xarajatlarisiz):
35 839 797,568 ming so‘m.

Asbob-uskunalar: 4 665 187,832 ming so‘m.

QQS: 4 860 598,250 ming so‘m.

Bundan bashqa buyurtmachining boshqa harajalari: 752 886,86 ming so‘m.

Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Tashqi muxandislik ta’minoti tegishli idoralar tomonidan ishlab chiqiladigan texnik shartlarga amal qilgan holda loyihalanishi va qurilishi lozim.

Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tastiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bop 29 bandiga muvofiq “Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

**7. Xulosalar.**

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me’yor talablari bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob’ektning qurilish materiallar, asbob-uskunalari qiymatlarini va ishlar hajmini maqullanishi sharti bilan «Nukus shaxri “Dosliq guzari” MFY hududidagi 5 qavatli turar-joy qurilishi» ob’ektining ishchi loyiha hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi uchun tavsiya etiladi. Tavsiya qilingan ob’ekt qiymati buyurtmachining pudratchi bilan shartnoma tuzishiga asos bo‘lmaydi.

**Bosh ekspert:** Turdimuratov Jangeldi Amangeldiyevich.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Palekeev Azat Paraxatovich, Uteniyazov Temur Tenelbay Uli, Seybullayev Sadadtin Allambergenovich, Aymuxammedov Aydos Toylibayevich, Tanabergenov Raxat Urazalievich, Turdimuratov Jangeldi Amangeldiyevich